IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
Volume 3 issue 2 - 2023

Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning intelektual salohiyatini oshirish

Qo'chqarova Mahmudaxon Adhamjonovna
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Nazarova Gulhayoxon Mo'ydinjon qizi.
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 37-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

G'ulomova Mushtariybonu Mo'ydinjon qizi.
Farg'ona davlat universiteti.Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash,ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir.Ushbu maqolada ta'lim jarayonida didaktik o'qiynlarni darsda qo'llash orqali o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirish haqida fikr yoritilgan.

Kalit so'zlar

Boshlang'ich ta'lim,ijodiy faoliyat,didaktik o'yinlar,intelekyual salohiyat.

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya tizimiga alohida etibor qaratilmoqda. Chunki ertangi kelajagimiz va ishonchimiz kelajak yoshlar qo'lidaligidan kelib chiqgan holda boshlang'ich ta'limga shart sharoit hamda e'tibor qaratilgan. Darsni tahkil qilish o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida olib borilganligi uchun har ikkala tomon darsga tayyorlangan bo'lishlari zarur.Darsda o'qituvchi o'z bilim ko'nikmalaridan kelib chiqgan holda mavzuni o'quvchilarga yetkazib beradi,o'quvchilar esa uni o'rganish orqali bilimlari ortib taraqqiy etib boradi. Ta'lim tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligi orqali talabchan o'quvchilarning mustaqil fikri ortadi va mustaqil ishlash jarayonida o'quvchining bilim doirasi kengayib boradi.Ma'lumki maktab ostoasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni dars jarayoniga qiziqtirish ularni darsga jalb qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir.O'yin - bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

Didaktik o'yinlarni xilma-xil tarzlarda yaratish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham jo'natish mumkin. Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 ni o'z ichiga oladi:

1. O'yinning ishlashi.
2. O'yinning harakati.
3. O'yinning qoidasi.
4. O'yinning yakuni.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan avval o'yinning qoidasi,mazmuni,yakuni nimadan iborat bo'lganligi o'qituvchi tomonidan tushuntrib beriladi.Misol qilib „Ishoralar" o'yinini olishimiz mumkin. O'yinning maqsadi bir amalli masalarani og'zaki usulda bajarish. Bunda bizga kerakli jihozlar „+" „-''amallari. Dastlab o'qituvchi masala shartini ifodali o'qib o'quvchilarga qanday bajarish kerakligi tushuntirib beriladi,o'quvchilar esa qaysi amaldan foydalanish kerakligini aytib masalani bajaradilar.

Misol : Mushtariyda 6 ta sariq va 3 ta qizil qalamlari bor. Hammasi bo'lib nechta qalami borligini qaysi amaldan foydalanib topamiz? Oquvchilar „+" amalidan foydalaanish kerakligini aytadilar

Sarvarda 7 ta kitob bor edi. 3 tasini ukasiga berdi.Sarvarda nechta kitob qoldi? O'quvchilar „-" amalidan foydalanish kerakligini aytadilar va masalani bajaradilar.

Yuqoridagi masalalarni mustahkamlash sifatida o'quvchiardan „+", „-" amallardan qanday foydalanish kerakligi so'rab o'tiladi.

Dars davomida didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarning nutqiy qobilyati aqliy salohiyatini oshirib boramiz.

Didaktik o'yinlardan na'munalar

"Jim" o'yin

O'yinning maqsadi: O'quvchilarning o'n ichida "+", "-" belgilari haqidagi bilim va malakalarini belgilash, sinash. O'yinda o'ynaladi. O'yin jihozi: Raqamlar yozilgan tarqatmalar, misollar, jadvallar. O'yinning borishi: Jadvallar doskaga osib qo'yiladi, doskaga bo'r bilan yoziladi. O'yin ovoz chigarmagan holda o'ynaladi. O'qituvchi ko'rsatmasi bilan 7 va 5 ni ko'rsatadi. O'quvchilar o'ylab 2 tarqatmani ko'rsatadilar. O'yin shu tariqa davom etadi.

"Bilmasvoyning xatolari" o'yini

O'yinning maqsadi: o'quvchilarning o'n ichida "+", "-" ishoralari haqidagi bilimlarini qobiliyat va malakalarini, mustaqil fikrlash jarayonini o'stirish.

O'yinning borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqadi va xatolarini tuzatadi.

10-7=4 10-3=6 7-3=5
3+2=6 4+3=8 4+1=6

"Kim epchil" o'yini.

O'yin maqsadi: Hozirjavoblik, topqirlik malakalarini rivojlantirish. O'yin jihozi: 2 ta savatchada ifodalar tikilgan olmalar 12-6; 2+8; 7+5; 4+8; 10-3 va hakozo.Stol ustida "olmalar" yozib qo'yiladi. Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. Stol ustidagi "olmalar" dagi ifodalarning barchasini aytib savatga sola boshlaydi. Ifodaning aniqlashni to'g'ri topmagan o'quvchilar ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p "olma" tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

"Bu qaysi shakl?" o'yini.

O'yinning maqsadi: Geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ularga ta'rif berish malakasini o'stirish. Og'zaki nutqini rivojlantirish. O'yin jihozi: Konvertlarga solingan geomatrik shakllar.

O'yinning borishi: Doskaga bir o'quvchi chiqadi. Konvertdagi shaklni qaysi bo'lishini ko'rib olib, o'quvchilarga murojaat qiladi. "Qo'limdagi geometrik shaklning uch tomoni bor, uning tomonlari xar xil uzunlikda bo'lishi ham mumkin. Bu qaysi shakl?"Shaklga to'g'ri ta'rif bergan va shaklning nomini to'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

— Kosmos bahodiri kim? oyini.

O'yinning maqsadi: 1) O'quvchilarni kasbga qiziqtirish. 2) O'quvchilarni tez fikrlashga o'xshaydi

O'yin mazmuni:

Sinf taxtasi yoniga har bir guruhdan bittadan uchta o'quvchi chiqadi . Ular bittadan kartochka olishadi. Kartochkalarga to`rt amal ichida misol yozilgan bo`ladi. Qaysi o'quvchi o'z qo'lidagi misollarni tez va to'g'ri bajarsa, shu o'quvchi fazogir,ikkinchi bo'lib bajargan o'quvchi uchuvchi va uchinchi bo'lib bajargan o'quvchi esa haydovchi sanaladi.

"Mohir hisobchi" o'yini.

O'yinning maqsadi: O'quvchilarda tez malakalarini hosil qilish.

O'yin mazmuni:

Sinf taxtasiga uchta ustundan iborat to`rt amal qatnashgan misollar yoziladi. O'qituvchi har bir guruhdan bittadan o'quvchini chiqaradi. Har biri o'ziga tegishli bo'lgan ustundagi misolni bajaradi. Qaysi o'quvchi oldin yechib bo'lsa, uning ishi tekshiriladi. Agar to'g'ri yechgan bo'lsa, mohir hisobchi sanaladi .

"Olma terish" o'yini.

Jihozlar: Magnit taxta, yozuv taxtasi, olma daraxtining rasmi, qalin qog'ozdan yasalgan mevasining rangi va savatchalar, olma mevalarining soni sinfdagi o'quvchilar soniga savatchalar esa qatorlar soniga teng bo'ladi.

Magnit taxtasiga qistirish uchun olma daraxt rasmi chizilgan plakat va olma mevalarining orqa tomoniga magnit yelimlanadi. Olmaning orqa tomoniga oddiy qalam bilan misollar yoziladi. Har bir darsda foydalanish uchun orqsidagi bajarilgan misol o'rniga boshqasini yozish mumkin. O'yinda 3 guruh bo'ladi. Har bir guruhga bittadan savatcha beriladi. Har bir guruhdan I tadan o'quvchi chiqib misollarni yechadi. Kim ko'p misol yechsa shu guruh g'olib bo'ladi.

Har bir darsga didaktik o'yinlarni kiritib dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish darsning tushunish va qiziqishni yanada oshiradi. Va bu jarayonlar bugungi kunning dolzarb vazifalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. . Eremin Aleksey Konstantinovich : "Pedagogik texnologiyalar"
2. A. Mirzaahmedov. «O`quvchilar faolligini oshirishda noan'anaviy darslar»., Til va adabiyot ta'limi jurnali.
3. Boshlang`ich ta'lim 2020-yil
4. J.G`.Yo`ldoshev,.S.A.Usmonov.«Pedagogik.texnologiya asoslari»,T.,O`qituvchi,2004 y.
5. J.G`.Yo`ldoshev.«Yangi.texnologiyaning.yo`nalishlari, muammolari, echimlari», Xalq ta'limi jurnali., 1999 y, 4-son.
6.N.Bekboyeva Boshlang'ich matematikani o'qitish nazariyasi.
7. www.ziyonet.uz
8.www.tdpu.uz
9.www.edu.uz
10.www.pedagog.uz

WORDLY KNOWLEDGE